

MOTIVATSIYANING MAZMUN-MOHİYATI VA PEDAGOGIK JARAYONDAGI ROLI

Toshtemirova Bahora Alisher qizi

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi magistranti

+998932132103 bahoraalisherovna2103@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454704>

Annotatsiya. Motivatsiya insonni muayyan faoliyatga yo'naltiruvchi ichki ehtiyojlar va tashqi ta'sirlar yig'indisidir. U shaxsning maqsadga erishish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida motivatsiya o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi, ularning darsdagi ishtirokini faollashtiradi va o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tezisdan motivatsiyaning mohiyati, asosiy ko'rinishlari hamda pedagogik faoliyatdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, ta'lim jarayoni, o'quvchi faolligi, ichki rag'bat, tashqi rag'bat.

Аннотация. Мотивация — это совокупность внутренних потребностей и внешних воздействий, направляющих человека к определённой деятельности. Она играет важную роль в достижении целей. В образовательной сфере мотивация способствует усилению стремления учащихся к обучению, повышает их активность и улучшает результативность учебного процесса. В данном тезисе анализируются сущность мотивации, её основные формы, а также её роль в педагогической деятельности.

Ключевые слова: мотивация, образовательный процесс, активность учащихся, внутренние стимулы, внешние факторы

Abstract. Motivation refers to a combination of internal needs and external influences that guide an individual toward certain actions. It plays a significant role in achieving goals. In the educational context, motivation enhances students' willingness to learn, increases their classroom engagement, and improves the overall effectiveness of teaching. This thesis analyzes the essence of motivation, its main forms, as well as its role in pedagogical activity.

Keywords: motivation, educational process, student engagement, intrinsic drive, extrinsic factors.

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish, raqamlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadallashtirish sharoitida tubdan yangilanishni boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayonda ta'lim sifati va natijadorligini kuchaytirish masalasi bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki motivatsiya ta'lim jarayonining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiyaning tub ma'nosini tasniflashda ehtiyoj, motiv, motivlashtirish hamda rag'batlantirish kabi tushunchalarning mazmuniga to'xtalish o'rinlidir.

Ehtiyojlar jismoniy, idrok etilgan va idrok etilmagan turlarga ajraladi. Jismoniy ehtiyojlar – bu ish o'rni va yashash joyini o'zgartirish ehtiyoji ko'rinishida namoyon bo'lsa, idrok etilgan ehtiyojlar – mavjud bizga yoqadigan narsalargacha siljish lozim. Idrok etilmagan ehtiyojlar ruhiy bo'lib, bular – ichki rag'batlardir. Umuman olganda, ehtiyojlar – bu shunday narsalarki,

ular inson ichida (ichki dunyosida) paydo bo'ladi va o'rnashadi, har xil insonlar uchun yetarli darajada umumiy hamda har bir insonda o'z vaqtida ma'lum ko'rinishda individual paydo bo'la oladi. Maqsadning ehtiyoj darajasiga chiqishi motivning kuchiga bog'liq.

Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga ko'ra, inson avvalo fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini qondiradi, undan so'ng ijtimoiy tegishlilik, hurmat va o'zini o'zi namoyon qilish darajalariga o'tadi.[1] Ta'lim tizimi misolida bu shuni anglatadiki, o'qituvchi barqaror ish haqi, qulay mehnat sharoitiga ega bo'lmaguncha undan yuqori darajadagi – ijodiy, ilmiy, innovatsion – faollikni talab qilish samara bermaydi. Biroq bugungi kunda faqat ilk ikki bosqichni ta'minlash kifoya emas, chunki yosh pedagoglar va raqamli avlod vakillari tez-tez o'zini namoyon etish, tan olinish, erkin metodik yechimlar sinab ko'rish imkonini izlaydi. Demak, Maslou modelini ta'limga qo'llashda aynan o'zini o'zi ro'yobga chiqarish pog'onasiga yo'l ochib berish eng muhim bo'g'in bo'lib qolmoqda. Maslouning nazariyasiga ko'ra odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish orqali yuqori maqsadlarga erishishga intilishadi, degan fikrga asoslanadi. Bu nazariya pedagoglarni boshqarish va ta'lim sifatini oshirish jarayonida o'z aksini topadi, chunki o'qituvchilarni rag'batlantirishda ularning ehtiyojlarini qondirish zarur bo'ladi. A.Maslou ehtiyojlar piramidasi quyidagi bosqichlarga bo'ladi. Fiziologik ehtiyojlar bu o'z navbatida o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonida har jihatdan qulay va xavfsiz sharoitlar yaratishni anglatadi. O'qituvchilar o'z ishlarini samarali bajarishi uchun yaxshi ish sharoitlari, sog'lom muhit, dam olish imkoniyatlari kerak. Jumladan, o'qituvchining yetarli vaqt va joyga ega bo'lishi, ish joyining yaxshi jihozlangan bo'lishi ta'lim sifatini oshiradi. Yaxshi sharoitlar o'qituvchining energiya va motivatsiyasini kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida ta'limning sifatini yuqori darajaga olib keladi

- Xavfsizlik ehtiyojlari bu o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatlarida xavfsizligini ta'minlash, ish joylarida psixologik barqaror muhit yaratish, hamda o'qituvchilarni mehnat huquqlari bilan ta'minlash ta'lim sifatiga ta'sir qiladi. Agar o'qituvchilar o'zlarining mehnat sharoitlariga ishonch hosil qilsa va ular psixologik xavfsizlikni his qilsa, ular ta'lim jarayoniga yanada samimiy yondashadi. Jumladan, o'qituvchining mehnat sharoitlaridagi xavfsizlikni ta'minlash, ularni o'z ishi bilan bog'liq tashvishlardan xoli qiladi va ular ta'lim sifatini oshirishga diqqatini jamlaydi.

- Ijtimoiy ehtiyojlar bu o'qituvchilarning jamoaviy ishlash va hamkasblar bilan aloqalari ta'limning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Jamoaviy ishda o'qituvchilar bir-birini qo'llab-quvvatlashlari, yangi metodlar bilan tanishishlari va tajriba almashishlari mumkin. O'qituvchilarning ishga bo'lgan munosabatini yaxshilashlari uchun ular o'zlarini guruhda yoki ta'lim muassasasida jamiyatga tegishli his qilishlari kerak. Jumladan, o'qituvchilarning hamkorlikda ishlashga va bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lishi, ta'lim jarayonini samarali qiladi va o'qituvchilarga ham ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

- Hurmat ehtiyojlari bu o'qituvchilarni mehnatlarini tan olish, ularni yuqori baholash va ularga muvaffaqiyatlarini ta'kidlab rag'batlantirish ta'lim sifatini oshirishda juda muhimdir. O'qituvchilar o'zlarining mehnati va yutuqlarini qadrlashlarini xohlaydilar. Masalan, o'qituvchining ta'limdagi muvaffaqiyatlari tan olinishi, turli mukofotlar va rag'batlar berilishi ularni yanada yaxshiroq va samaraliroq harakat qilishlariga undaydi. Bu o'z navbatida o'qituvchilarning o'z ishlariga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi va ta'limni yuqori sifatga olib chiqadi.

- O'zini-o'zi amalga oshirish ehtiyojlari bu ehtiyojlar o'qituvchining o'zini to'liq potensialini amalga oshirishiga imkon beradi. O'qituvchilar yangi bilimlarni o'rganish, innovatsion pedagogik metodlarni o'zlashtirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak. Bu ehtiyoj o'qituvchilarga o'z ishlarini samarali bajarish va ta'limni yaxshilash uchun zarur bo'lgan yangi

metodlarni kashf etishga yordam beradi. Jumladan, o'qituvchining o'z kasbiy rivojlanishiga imkon yaratish, uni yangi pedagogik uslublar va metodlar bilan tanishtirish, ta'lim sifatini oshiradi. Pedagoglar o'zlarining shaxsiy va professional maqsadlariga erishish orqali ta'lim jarayonini yuqori darajaga olib chiqadilar.

A.Maslouning nazariyasi o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning ehtiyojlarini qondirish orqali ularning ish samaradorligi va ta'lim sifatini oshiradi[2]. Shuningdek, A.Maslouning ehtiyojlar piramidasiga qo'shimcha ravishda, o'quv muassasalarida pedagogik xodimlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun bir nechta boshqa psixologik omillarni ham kiritish mumkin. Bular o'qituvchilarning motivatsiyasi, o'zini-o'zi amalga oshirish ehtiyoji, ichki va tashqi motivatsiya, rahbarlik va liderlikning psixologik asoslari, shuningdek, stressni boshqarish va ishdagi qoniqishlarni ta'minlash kabi muhim jihatlardir. A.Maslouning ehtiyojlar piramidasining yuqori qismidagi o'zini-o'zi amalga oshirish ehtiyoji pedagogik xodimlarning to'liq potensialiga erishishi va o'z maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, yangi pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar bilan tanishish imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur. Bu ehtiyojni qondirish o'qituvchilarni motivatsiya qiladi va ta'lim jarayonini yangilashga turtki beradi.[3]

Motiv – insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisidir. Bundan tashqari o'quvchining ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi. U shaxsdagi xulq-atvorga qaratilgan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

Psixologiyada, jumladan, S.L.Rubinshteyn tomonidan ham shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvori, o'zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga oshishi motiv tushunchasi bilan bog'lab talqin qilinadi[4]. Motiv yaqqol faoliyat nuqtai nazaridan qaralib, ehtiyojli yondashuvi bu nazariyaning yanada boyishiga va kengayishiga sabab bo'ldi. Olim motivning psixologik mohiyatiga ta'rif berar ekan, faoliyatning manbai bo'lgan va unga undab turgan jonkuyarlik deb atagan. A.N.Leontev motivlarni ikki kategoriyaga bo'ladi: mazmun kasb etuvchi motivlar va stimulyativ motivlar. Birinchisi ham ishtiyoq uyg'otuvchi, ham mazmun kasb etuvchi vazifani bajarsa, ikkinchisi faqat ishtiyoq uyg'otuvchi vazifani bajaradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Maslow, A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 369 p.
2. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
3. Maslow, A. H. (1954). Motivation and Personality. Harper & Row
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.
5. Леонтев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: учебное пособие. – 2-е изд., стереотипное. – М.: Смысл; Академия, 2005. – 352 с.